

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ABDUVAHOBOVA SABOXATXON ABDUMAVLONOVNA

**EKSTREMAL SHAROITLARDAGI SOVUQDAN HIMOYALANISH UCHUN
QUYON JUNIDAN MAXSUS KIYIM ISHLAB CHIQISH**

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abduvahobova Saboxatxon Abdumavlonovna

Ekstremal sharoitlarda sovuqdan himoyalaniş uchun quyon junidan maxsus
kiyim ishlab chiqish..... 3

Абдувахобова Сабохатхон Абдумавлоновна

Разработка специальной одежды из кроличьего меха для защиты от
холода в экстремальных условиях... 21

Abduvakhobova Sabokhatkhon Abdumavlonovna

Developing special clothing from rabbit fur for protection against cold in
extreme conditions..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ABDUVAHOBOVA SABOXATXON ABDUMAVLONOVNA

EKSTREMAL SHAROITLARDA SOVUQDAN HIMOYALANISH UCHUN
QUYON JUNIDAN MAXSUS KIYIM ISHLAB CHIQISH

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5714 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy kengash veb-sahifasida (www.itysi.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyouet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Kamilova Xolida Hafizovna texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Nigmatova Fotima Usmanovna texnika fanlari doktori, professor
	Pulatova Saboxat Usmanovna texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Jizzax politehnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-fevral sht 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: 253-36-17, e-mail: titp_info@edu.uz) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona.

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 273-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 5-fevral kuni
(2026-yil 5-fevraldagi 273-raqamli reestr)




A.E. Gulamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor


N.R. Xanxadjayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rahbari, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tikuvch oati mahsulotlari assortimentini kengaytirishda quyon terisidan foydalan yor mahsulot olishda energiya-resurs tejankor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqiyosida quyon terisidan foydalanish hajmi 2024 yilda 587 million bosh quyonni tashkil etdi. 2025 yilda bu ko'rsatkich 632 million bosh quyonga, 2030 yilga kelib taxminan 825 million bosh quyonga yetishi kutilmoqda, bu esa 2026-2030 yillar mobaynida yillik 30,6% o'sishni qayd etadi. Tikuvchilik sanoatida quyon terisidan kiyim assortimentini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, asbob-uskunalardan oqilona foydalanish, quyon terisidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning estetik ko'rinishini va ularni jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq. Shu jihatdan korxonalarda xomashyolardan samarali foydalanish, issiqlik saqlovchi xususiyatlarini oshirgan holda quyon terisidan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish masalalarini hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda quyon terisini oshlash va mo'ynasini issiqlik saqlovchi xususiyatlarini aniqlash, ularning mustahkamlik va ekspluatasion jarayonlarini aniqlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda quyon junidan ekstremal sovuqqa chidamli kiyim ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, quyon jun-mo'yidan ekstremal sharoitga mo'ljallangan sovuqdan himoyalovchi kiyimlarni ishlab chiqish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda quyonchilik sohasida import hajmini kamaytirish borasida quyonchilik sohasida qayta ishlovchi tashkilotlar tarmog'ini yanada kengaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, quyon jun-mo'yi tolasining tarkibiy xususiyatlarini aniqlash va tikuvchilik sanoatida issiqlik saqlovchi noto'qima materiallar turini ko'paytirish va yangi turini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»¹, 2019 yil 2 avgustdagi Vazirlar Mahkamasining «Respublikada quyonchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 647-sonli qarori ijrosi yuzasidan «Respublikada import hajmini kamaytirish borasida quyonchilik sohasida qayta ishlovchi tashkilotlar tarmog'ini yanada kengaytirish to'g'risida»gi², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 fevraldagi PQ-143-sonli «Teri-poyabzal va mo'yna sanoatlarida tayyor mahsulotlar ishlab

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi 2022-2026-yillarda" to'g'risidagi Farmoni

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-avgustdagi № 647-sonli "Respublikada quyonchilik ilmiy faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori

chiqarishni qo'llab-quvvatlashni yanada oshirish to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi yig'ilishining 2021 yil 12 yanvardagi 15 - son «O'zbekiston Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari formal kiyimini ishlab chiqish va milliylikni aks ettiruvchi elementlarni qo'llash to'g'risida»gi farmonlari hamda O'zbekiston iqlimining ekstremal sharoitiga mos harbiy xizmatchilar uchun sovuqdan himoyalovchi xususiyati yaxshilangan qishki kiyim ishlab chiqish hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Issiqlikni himoya qiluvchi materiallar va kiyimlar paketlari bilan bog'liq masalalarni o'rganishga mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari katta hissa qo'shgan. Ular orasida D. Kunzel, S. Lapinski, B. Barabasz, Shu Yang, Feng Runze, Ren Chjan, P.A Kolesnikov, B.A Buzov, A.P Jixarev, I.Yu Brink., A.B Mixaylov, O.A Aleynikov, I.V Cherunova, M.V Rodichev va boshqalarni qayd etish mumkin.

Qattiq sovuq iqlim sharoitlarida himoya funksiyasini bajaruvchi kiyimlarni ishlab chiqish muammosi, shuningdek, tabiiy mo'ynaga mashhur mahalliy olimlar A.B. Mixaylov, D.A. Sovetnikova, L.A. Bekmurzayev va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Respublikamizda maxsus kiyimlarning issiqlikni saqlash xususiyatlarini o'rganish, issiqlikni himoya qiluvchi kiyim va poyabzallarning konstruksiyalari va ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari bilan, Kamilova X.X, Qodirov T, Po'latova S.U, Temirova M, Jumaniyozov Q, O'rozov M.K, Nabiyeva I.A va boshqalar shug'ullanganlar.

Biroq, hozirgacha ekstremal sharoitlar uchun mo'ljallangan issiqlikni himoya qiluvchi qishki kiyim paketlarini tashkil etuvchi, nuqsonli quyvon terisidan tayyorlangan materiallar va paketlarning isitish xususiyatlari batafsil o'rganilmagan. Bu esa ularning sifatini baholashni qiyinlashtiradi, mo'yna sanoatida quyvon terilaridan oqilona foydalanishga to'sqinlik qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 30/2024 "O'zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchi xodimlari formasi uchun kiyimning texnik tavsiflari va texnik shartlarini ishlab chiqish" xo'jalik shartnomasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston iqlimiga mos ekstremal sovuq sharoitiga mo'ljallangan harbiy xizmatchilar uchun sovuqdan himoyalovchi xususiyati yaxshilangan maxsus kiyimni yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ekstremal sovuq iqlim sharoitiga mos kiyim paketining tahlili asosida, issiqlik saqlash xususiyatini oshiruvchi optimal noto'qima material turini tanlash va asoslash;

Ustki kiyimni issiqlik saqlash xususiyatini oshirishga mo'ljallangan quyon jun-mo'yidan noto'qima material ishlab chiqish;

O'zbekiston ekstremal sovuq sharoitiga mos qishki maxsus kiyimni loyihalash jarayonini takomillashtirish;

Qishki maxsus kiyim sifat ko'rsatkichlarini oshirishga ta'sir etuvchi omillarning oqilona parametrini tanlash;

Tadqiqot obyekti sifatida issiqlikni yaxshi saqlovchi xususiyatlarga ega bo'lgan harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan maxsus qishki kiyim olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida O'zbekiston iqlim sharoitiga mos va ekspulatsion talablarga mos keladigan, harbiy xizmatchilar uchun maxsus qishki kiyimni loyihalashtirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning usullari. Ishning bajarilishi umumiy fan yondashuviga asoslangan bo'lib, unga nazariy va amaliy materiallarni tahlil qilish va sintez qilish, guruhlash va solishtirish, matematik modellashtirish kiradi. Eksperimental tadqiqotlar standart metodikalar bo'yicha o'tkazilgan hamda matematik rejalashtirish, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ekstremal sharoitlarda sovuqdan himoya qiluvchi harbiy xizmatchilar maxsus kiyimi paketi uchun quyon jun-mo'yi qo'llanilgan noto'qima material ishlab chiqilgan va uning tarkibi asoslangan;

harbiy xizmatchilar qishki kiyimi paketida qo'llash uchun mo'ljallangan quyon jun-mo'yi va poliefir aralashmali noto'qima material ishlab chiqish usuli takomillashtirilgan;

ekstremal sharoitlarda sovuqdan himoyalovchi harbiy xizmatchilar maxsus kiyimida quyon jun-mo'yi va poliefir aralashmali noto'qima mato paketi qalinligi nazariy asoslangan va konstruktiv qo'shimcha qiymati aniqlangan;

ekstremal sharoitlarda sovuqdan himoyalovchi harbiy xizmatchilarning maxsus kiyimi sifat ko'rsatkichlarini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni oqilona parametrlari o'zaro bog'liqlik qonuniyatlari to'liq omilli tajribani o'tkazish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

harbiy xizmatchilar maxsus qishki kiyimni yaratishda isituvchi qatlam uchun quyon jun-mo'yi qo'llanilgan noto'qima material ishlab chiqilgan;

quyon jun-mo'yi va poliefir aralashmali noto'qima material ishlab chiqish usuli taklif etilgan;

harbiy xizmatchilarning maxsus qishki kiyimi paketi uchun oqilona qo'shimcha qiymati tavsiya etilgan;

sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan ekstremal sharoitlarda sovuqdan himoyalovchi harbiy xizmatchilarning maxsus qishki kiyimi namunasi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sinovdan o'tgan matematik usullarga asoslanganligi; olingan nazariy natijalar amalga oshirilgan eksperimental va amalda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bilan solishtirilganligi hamda boshqa olimlar tomonidan olingan ma'lumotlar bilan taqqoslab tekshirilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekstremal sharoitlarda sovuqdan himoyalovchi harbiy xizmatchilarning maxsus kiyimi “harbiy xizmatchi-maxsus kiyim-atrof muhit” tizimida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maxsus qishki kiyimni sovuqdan himoyalash xususiyatini oshirish maqsadida nuqsonli quyon jun-mo‘yi va poliefir aralashmasidan noto‘qima materialni ishlab chiqilganligi, quyon-mo‘yi va poliefir aralashmali noto‘qima material ishlab chiqish usuli tavsiya etilganligi, harbiy xizmatchilarning maxsus kiyimida quyon jun-mo‘yi va poliefir aralashmali noto‘qima material qo‘llanilgan kiyim paketi uchun oqilona qo‘shimcha qiymati tavsiya etilganligi, maxsus kiyim paketida quyon jun-mo‘yi va poliefir aralashmali noto‘qima material qo‘llanilganligi kiyim sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etilishi. Ekstremal sharoitlarda sovuqdan himoyalovchi harbiy xizmatchilarning maxsus qishki kiyimini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maxsus qishki kiyim texnik hujjatlari “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tasarrufidagi «IDEAL TEKSTIL ORZU» MCHJ tikuv korxonasi joriy etildi (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025 yil ma‘lumotnomasi). Natijada, qishki maxsus kiyimi komplektini va tayyorlash texnologiyasini joriy etish, xom ashyo sarfini kamaytirish evaziga kiyim tannarxini 6,3 % kamaytirishga imkon yaratilgan;

sovuqdan himoyalash xususiyati yuqori bo‘lgan maxsus kurtka O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk Agentligi tomonidan foydali modelga patent olish uchun topshirilgan (“Теплозащитная куртка специального назначения”, №FAP 20250308, 08.09.2025). Natijada harbiy xizmatchilar uchun O‘zbekiston iqlimiga mos ekstremal sovuqdan himoyalovchi maxsus kiyim yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, xorijda 4 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi asoslangan, umumiy tavsifi berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va asosiy vazifalari shakllantirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga dissertatsiya ishining mosligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi va nashr etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi ko‘rsatilgan.

“Maxsus kiyimlarning issiqlikni saqlovchi xususiyatlarini takomillashtirish yo‘llari” nomli dissertatsiyaning birinchi bobida adabiyotlar, patent ma‘lumotlari tahlil qilingan, sovuqdan himoya qiluvchi maxsus kiyim-kechaklarni ishlab chiqish, takomillashtirish va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilashga qaratilgan, quyonchilik sohasidagi yangi tendensiyalar, rivojlanish istiqbollari bo‘yicha ma‘lumotlar tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan. Quyon junidan tayyorlangan, talab yuqori bo‘lgan xomashyo va mahsulotlarni joriy etishni qiyinlashtirayotgan sabablar va omillar ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan. Bularga quyon junining xususiyatlarining kam o‘rganilganligi va ularning sifatini ob‘ektiv baholash uchun normativ-texnik hujjatlarning mavjud emasligi, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish uchun zamonaviy texnologiyalarning yo‘qligi kiradi. Zamonaviy sintetik va yarim sintetik (sintepon, hollayber, tinsuleyt), tabiiy (paxta, qo‘y va tuyaning junlari, pat) isitgichlarning asosiy turlari, ularning issiqlikni saqlashdagi afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, quyon junidan foydalanish istiqbollari, maxsus kiyimlarni issiqlikni saqlash imkoniyatlarini yanada yaxshilashga qaratilgan innovatsion baholash usullari tahlil qilingan.

O‘zbekistonning ekstremal iqlim zonalarida, past harorat (-20,00C...-350C), kuchli shamol (5,6...14,0m/s) va namlik (30) bilan tavsiflangan, materiallar paketining umumiy issiqlik qarshiligi $0,33 \text{ OS m}^2/\text{Vt}$ dan kam bo‘lmasligi kerak. Quyon junining qo‘y juniga nisbatan 10 barobar issiqroq va 4 barobar yengilroq, paxtaga nisbatan esa 30% yengilroq ekanligi asoslangan. Yaxshi junli qo‘ylarning junida yog‘-ter taxminan 50% ni, quyon junida esa 1% (0,7-1,5%) ni tashkil qiladi. Quyon xomashyosini qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish utilizatsiya qilinadigan chiqindilarni kamaytirishga va resurslarni tejashga yordam beradi.

Issiqlikni himoya qiluvchi kiyim-kechaklarni loyihalashda qo‘llaniladigan ko‘p qavatli paketlar printsipi ko‘rib chiqildi. Maxsus issiqlikni himoya qiluvchi kiyim-kechaklarni loyihalash jarayonida “paket”ning havo o‘tkazuvchanligini kamaytirish orqali issiqlik qarshiligini oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozimligi ta‘kidlandi, bu esa mahsulotning issiqlik yo‘qotishini mos ravishda kamaytiradi.


Boshqa materiallar bilan solishtirganda uning raqobatbardoshligi arzonligi, ekologik tozaligi, yuqori issiqlikni saqlovchi xususiyatlari va qulay foydalanishi bilan bog‘liq. Ushbu sohada texnologiyalarni yanada tadqiq qilish va ishlab chiqishni takomillashtirish quyon mo‘ynasidan tayyorlangan maxsus kiyim-kechaklar sifatini yanada yaxshilaydi.

Dissertatsiyaning **“Quyon mo‘ynasidan foydalangan holda maxsus kiyim-kechaklar uchun materiallar paketini ishlab chiqish”** nomli ikkinchi bobida nuqsonli quyon terisidan olingan quyon mo‘ynasidan yangi izolyatsiyalovchi materiallarni ishlab chiqishga bag‘ishlangan eksperimental tadqiqotlar natijalari, maxsus kiyim-kechaklarning issiqlikni himoya qilish xususiyatlarini oshirish maqsadida izolyatsiyalovchilarning fizika-mexanik xususiyatlari va issiqlik izolyatsiyasi qobiliyatini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Nuqsonli quyon terisidan ekstremal sovuq sharoitlari uchun ishonchli va qulay maxsus izolyatsiyalovchi kiyim-kechaklarni loyihalash maqsadida, poliefir tolasi bilan aralastirilgan quyon junidan yangi to‘qilmagan matoni yaratish texnologiyasini takomillashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Namuna sifatida qishloq xo‘jaligi yoki sanoat ishlab chiqarishida hosil bo‘ladigan, 2019-yilda Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanida tashkil etilgan “Quyunchilik va naslchilik agrokompleksi” MCHJdan olingan utilizatsiya qilingan quyon terilari ishlatilgan. Junni tozalash uchun teridan yuqori sifatli junni ajratish va to‘qilmagan matoni shakllantirishning mexanik usullari eng samarali hisoblanadi.

Bunda tolalarga shikast yetkazmasdan toza tivit (jun) olish muhimdir. Namunalardan teri osti yog‘ qatlami olib tashlangandan so‘ng (1-rasm), junni ajratish uchun eritma bilan ishlov berildi.



1-rasm. Eritma bilan ishlov berilgan quyon terisi: mikroskopik tuzilish va jun ildizlarining susayishi


a) Quyon terisining ko‘ndalang kesim ko‘rinishi; b) Baxtarma tarafidan eritma surtilgan xolati; s) Eritmaning teriga singib jun ildizlarini susaytirilgan xolati.

Nuqsonli quyon terilarining jun (wool) toifasidagi tolalarining hajmi va tuzilishi, shuningdek, taqqoslash uchun qo‘y, tuya junlari va qorako‘l tolalarining zamonaviy uskunalarda (mikroskoplar, tolali analizatorlar) yordamida tahlili o‘tkazildi (2-rasm). Olingan natijalar tolalar morfologiyasini, mo‘yna tarkibini (o‘rtacha uzunligi, diametri, elastikligi, egiluvchanligi, tolalarining issiqlik o‘tkazuvchanligi) batafsil o‘rganish imkonini berdi, bu esa maxsus kiyimlarda foydalanishga yaroqliligini aniqlash uchun muhimdir.

Tolalar turi				
	Quyon jun mo‘yi	Qo‘y juni	Qorako‘lcha	Tuya juni
Ko‘ndalang kesimi				
Bo‘ylamasida bo‘yicha				

Tahlil shuni ko'rsatdiki, soch qoplamasining eng ko'p tarqalgan toifasi yumshoq tuklar bo'lib, ularning miqdori taxminan 70% ni tashkil qiladi. Yumshoq tuklar - yumshoq, kalta, ingichka diametrlil va shaffofroq qobig'li bo'lib, qalin, qattiq va qalin ustki sochlar bilan almashinib turadi. Yumshoq tuklarning uzunligi (woolhair)

3-12 mm. Yumshoq tuklarning diametri - 7,00-13,33 mkm oralig'ida. Ustki sochlarining o'rtacha uzunligi 2,78 sm; sochning bazal diametri - 11,33mkm. Quyvon junining gigroskopikligi va zichligi hamda boshqa tolalar (qo'y, qorako'l va tuya junlari, paxta) aniqlandi, ularning issiqlikni saqlashdagi afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, maxsus ishlov berilgandan so'ng tabiiy materiallardan foydalanish istiqbollari (3-rasm) ko'rib chiqildi. Issiqlikni ichkariga aks ettiruvchi maxsus qoplamalar va membranali matolarning sovuqdan himoya qilishdagi roli o'rganildi.



3-rasm. Turli tolalarning gigroskopiklik (a) va hajmiy zichlik (b) bo'yicha taqqoslash diagrammalari: 1-quyvon yungi, 2-qo'y yungi, 3-qo'zi terisi, 4-tuya yungi, 5-paxta.

Quyvon terisining puxli (wool) tolalarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, bunday yung juda yengil, hajmiy zichligi va tola uzunligi kichik bo'lib, bu esa olingan to'qima bo'lmagan materialning yumshoqligi va yengilligini ta'minlaydi, gipoallergenlik xususiyatlariga ega, boshqa tabiiy jun tolalaridan (qo'y va tuya yungidan) sifatliroqdir, va tolaning morfologik tuzilishidagi mikrokanallar tufayli havoni yaxshi ushlab turadi, bu esa samarali issiqlikni saqlashni ta'minlaydi.

Qo'yichirchiq tumanida joylashgan "Woolen FOUX FUR Heat" MChJ korxonasida maxsus issiqlikni himoya qiluvchi kiyimlarda qo'llash maqsadida quyvon terisi va poliefir tolasi aralashmasidan yangi to'qima bo'lmagan matolar namunalari tayyorlandi. Poliefir va jun tolalaridan to'qima bo'lmagan material olish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar WJM-2 termik biriktirish uskunasidan foydalangan holda, termik biriktirish metodi bilan geotekstil ishlab chiqarish liniyasida o'tkazildi. Jami quyvon, tuya va qo'y yungidan 3 xil to'qima bo'lmagan material namunalari tayyorlandi (1-jadval). Ularga alohida-alohida, bir xil nisbatda poliefir tolalari qo'shildi. Har bir namunada 5 kg jun va 5 kg poliefir tolasi aralashtirildi.

To'qima bo'lmagan mato olishning butun jarayoni tayyorlash, saralash, yuvish, quritish va terini bir tekisda taqsimlash, poliefir yoki poliesterning bo'shli tolalarini tashkil etuvchi sintetika bilan birlashtirish, presslash, termobiriktirish va rulonga o'rash bosqichlaridan iborat edi (4-rasm). Termik ishlov berish natijasida polimer elementlari yuqori harorat ta'sirida yumshaydi va barcha tolalar bir-biriga yopishib, yagona bir tekis material hosil qiladi. Bunday biriktirish hisobiga material juda mustahkam va chidamli bo'ladi.



4-rasm. WJM-2 uskunasiida tukli matolar uchun quyon jun va poliesterni termobindlash jarayoni (fragment)

Texnologik yechim sifatida defektli quyon terisi junlaridan yangi tukli isitgichlar yaratildi. Ular arzon, ekologik xavfsiz, kimyoviy bog‘lovchilarsiz, yuqori issiqlikni saqlash xususiyatlariga ega va foydalanishda qulay, bu esa ularni o‘xshash materiallar bilan solishtirganda raqobatbardosh va maxsus kiyimlarda ishlatish uchun iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq qiladi.

Jun va poliefirning turli nisbatlaridagi ishlab chiqilgan materialning asosiy xususiyatlari o‘rganildi (1-jadval). Turli tarkibdagi kombinasiyalarga ega bo‘lgan materiallar va kiyim paketlarining issiqlik izolyasiyasi koeffisientlari real sharoitlarda maxsus AW-2 laborator uskunasiida aniqlandi.

Yangi material paketlarining issiqlik o‘tkazuvchanligi, havo o‘tkazuvchanligi, bug‘ o‘tkazuvchanligi, zichligi, elastikligi, yirtilishga chidamliligi, yorilishga qarshiligi, pillingga chidamliligi kabi muhim xususiyatlari aniqlandi. Noto‘qima materiallar namunalarining sifat ko‘rsatkichlarini taqqoslash, ular 30x30 sm o‘lchamda bo‘lib, quyon jun va poliefir aralashmalaridan tayyorlangan, poliefir va junning massaviy foiz nisbati bilan farqlanadi (1-jadval). №4 quyon junli namuna bir qator afzalliklarga ega ekanligini ko‘rsatdi: kichik qalinlik, past havo o‘tkazuvchanlik, yuqori issiqlik izolyasiyasi xususiyatlari. Shunday qilib, eksperimental yo‘l bilan quyon jun va poliefir bikomponentli tolalardan tayyorlangan noto‘qima mato 50x50% nisbatda aralashmada yengil issiqlik izolyasiyasi kiyim paketlari uchun past harorat sharoitlarida foydalanish talablari nuqtai nazaridan optimal ekanligi aniqlandi.

1-jadval


Turli quyon juni va poliefir aralashmalaridan tayyorlangan kiyim paketlarining fizik xususiyatlari natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	Poliefir 100%	Jun tolasi.20% Poliefir 80%	Jun tolasi 30% Poliefir 70%	Jun tolasi 50% Poliefir 50%
1.	Qalinlik, cm	3,6	3,3	3,1	2,8
2.	Havo o‘tkazuvchanlik, (cm ³ /cm ² .cek)	5,80	3,76	3,68	3,54
3.	Issiqlik saqlovchanlik, %	43,2	56,0	62,0	76,1

Disertasiyaning “**Past haroratli sharoitlarda foydalaniladigan maxsus kiyimlarni loyihalash jarayonini takomillashtirish**” nomli uchinchi bobida issiqlik izolyasion materiallarning optimal qalinligini aniqlash, ularning sovuqdan himoya xususiyatlarini o‘rganish va maxsus kiyimlarning sifat ko‘rsatkichlarini ilmiy asoslash bo‘yicha tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Issiqlikni saqlash xususiyatlarini oshirish bilan bir qatorda, harakat erkinligi, yengillik va qulaylikni ta‘minlovchi maxsus kiyimlarning ergonomik va estetik ko‘rsatkichlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Ekstremal sovuq sharoitlarda kiyim paketi tarkibidagi issiqlik izolyasion materiallarning qalinligi va ularning issiqlik uzatishi kiyimning issiqlik izolyasion samaradorligiga ta‘sir etuvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, issiqlik izolyasion paketning qalinligini optimallashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Past havo harorati sharoitida maxsus kiyim materiallari paketining qalinligiga oqilona qo‘shimcha miqdorini aniqlash uchun 170-100-84 o‘lchamli standart erkak figurasiga, Fransuz metodikasi, ЦОТШЛ, У. Алдрич, ЦНИИШП, “Мюллер & Сын” bo‘yicha qurilgan issiqlik izolyasion kiyimlarning yoyilmalari bo‘yicha parametrik tadqiqotlar o‘tkazildi. Konstruksiyalarning hajmli shakli va o‘rnashish sifati konstruktiv qo‘shimchalar (Пс, Птп, Пк) qiymatlarini solishtirish va harbiy xizmatchilar uchun qishki maxsus kiyimlar konstruksiyalari maketlarida Kuzmichev V.E. uslubiyoti bo‘yicha ko‘rsatkichlar majmuasini ekspert baholash orqali tekshirildi (5-rasm). Natijada, keyingi tadqiqotlar uchun qabul qilingan oqilona qo‘shimchalar (Пс, Птп, Пк) qiymatlari tanlandi.



5-rasm. Turli usullar bilan tikilgan erkaklarning qishki kurtkalarining BK (badan kiyimi) ni taqqoslash: a) «Мюллер & Сын», b) ЦОТШЛ, v) У. Алдрич, g) ЦНИИШП, d) Fransuz metodikasi.

Ratsional issiqlik almashinuvi uchun minimal fiziologik komponent miqdorini aniqlaymiz, undan kam konstruktiv qo‘shimchani tanlash tavsiya etilmaydi. Agar shartli ravishda tana torsosining gorizontol kesimi yarim doira shaklida deb qabul qilinsa, sirtning tashqi va ichki konturlari uzunliklari farqi quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\Pi_{TM} = \alpha R_o - \alpha R_B = \alpha(\delta_{\Pi} + \delta_{v.ПР}) + 0,5\alpha \delta_{OT} = \alpha(\delta_{\Pi} + 0,5\alpha\delta_{OT}) + \alpha \delta_{v.ПР} \quad (1)$$

Bu yerda δ – kiyim paketining umumiy qalinligi, см; δ_{Π} – astarlik mato qalinligi, см; δ_{OT} – ustki plashbop mato qalinligi, см; $\delta_{v.ПР}$ – issiqlik saqlovchi noto‘qima material qalinligi, см.

Agar α burchakni π ga teng deb olsak, u holda (1) formulani quyidagicha qayta yozish mumkin:

$$\Pi_{TM} = \pi (\delta_{II} + \delta_{IIP} + \delta_{oc}) + \pi \delta_{V.IIP} \quad (2)$$

Shunday qilib, ko'p qatlamli issiqlikdan himoyalovchi kiyimlar uchun materiallar paketining qalinligiga qo'shimchani, isitilgan qatlamning qalinligini hisobga olgan holda, (2) formula bo'yicha hisoblash tavsiya etiladi.

Taklif etilayotgan (2) formuladan foydalanib, sintepon, xolofayber, tuya junidan tayyorlangan sherstipon va quyon junidan tayyorlangan isitilgan paketlarning materiallar paketi qalinligiga qo'shimcha hisoblandi. Agar sintepon va tuya junidan tayyorlangan paketning qalinligini $\delta_{V.IIP}=3,2\text{cm}$ teng deb olsak. hollofayber va quyon junidan tayyorlangan paketning qalinligi


$\delta_{V.IIP}=2,8\text{cm}$, Hisoblash Π_{TM} (2)-chi formulaga ko'ra bo'ladi:

$$\Pi_{T.M} = 3.14(0.15 + 0 + 0,5 * 0.35) + 3.14 * 2.3 = 9.812$$

$$\Pi_{T.M} = 3.14(0.15 + 0 + 0,5 * 0.35) + 3.14 * 3.2 = 10.754$$

Bu yerda $\delta_{II}=0,15\text{ cm}$, $\delta_{OT}=0,35\text{ cm}$.

Keyingi bosqichda sovuqdan himoya qilish uchun termoizolyatsion kiyim to'plami (6-rasm) shakllantiriladi, u 3 ta qatlamdan iborat: (a) suv o'tkazmaydigan tashqi plashbob mato, (b) quyon jun va poliefir aralashmasidan ishlab chiqilgan noto'qima material, (c) astarlik mato.




6-rasm. Sovuqdan himoya qiluvchi termoizolyatsiya paketi

Quyon juni va poliefir tolalari aralashmasidan iborat isitilgan qatlam yaxshi issiqlik himoyasini, qulaylikni, yengillikni va dala sharoitida manfiy haroratlarda kiyish uchun qulaylikni ta'minlaydi. Kiyim dizayni ekstremal sharoitlarda harakat erkinligi va qulaylikni ta'minlaydi.

Taklif etilayotgan maxsus kiyim paketining himoya xususiyatlarini aniqlash uchun maxsus uskunalar – teplovizor asboblar yordamida tabiiy tadqiqotlar o'tkazildi. Bu asboblar to'qilmagan materialning tadqiq etilayotgan namunasi yuzasida issiqlik maydonlarining taqsimlanishini olish va vizuallashtirish,

shuningdek, bu maydonlarning notekisliklarini o'rganish va shu tariqa kiyimning ekspluatatsiya sharoitlarida himoyasining haqiqiy samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Sinovlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutining sovuvgich kamerasida kuz faslida "Bosch" 400C (Germaniya) rusumli teplovizor yordamida o'tkazildi. 1 soat 20 daqiqa davomida statik ish rejimida, kiyim osti qatlamining yagona harorat diapazonida, barcha tadqiq etilayotgan namunalar uchun kiyim ostidagi mikroiklimning o'rtacha statistik parametrlari (harorat, nisbiy namlik va karbonat angidrid konsentratsiyasi) uzluksiz o'lchandi. Sinovdan 3 ta maxsus kiyim namunasi o'tkazildi (5-jadval): mavjud sinteponli, tuya juni paketi bilan va taklif etilayotgan quyon juni bilan 7-rasmda turli isituvchi paketli kostyumlardagi sinaluvchilarning infraqizil fotosuratlari ko'rsatilgan.



7-rasm. Maxsus kiyimlarning teplovizorda olingan suratlari:

- a) mavjud maxsus kiyim, b) tuya junidan tikilgan maxsus kiyim, v) quyon jun-mo'yidan tikilgan maxsus kiyim.

Termovizor suratlari shuni ko'rsatadiki, quyon mo'ynali maxsus kiyimdagi inson tanasidan issiqlik yo'qotishlari kamayadi, bu sintetik qishki paketli mavjud maxsus kiyimga va hatto tuya junidan tikilgan maxsus kiyimga nisbatan sezilarli darajada ustunlik qiladi. Olingan natijalar taklif etilayotgan to'qilmagan materialning yuqori issiqlikka chidamliligini (issiqlikni uzoq muddat saqlash) tasdiqlaydi, bu past haroratlarda harbiy xizmatchilarning maxsus kiyimlarining yuqori qulaylik darajasini ta'minlash kafolati bo'lishi mumkin.

Maxsus kiyim namunalari Xorazm va Qoraqalpog'istonning dala sharoitida -25°C haroratda termal sensorli qurilma yordamida ham sinovdan o'tkazildi. Sensorlardan olingan to'g'ridan-to'g'ri o'lchov ma'lumotlari WiFi+Bluetooth orqali mobil telefonning raqamli displeyida ko'rsatildi va har 2 daqiqada 20 daqiqa davomida sinov protokoliga yozib borildi. Turli xil izolyatsiyali kiyim namunalari o'tkazilgan beshta tajribadan olingan termal sensorlarning o'rtacha ma'lumotlari 5-jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, quyon mo'ynali maxsus kiyim namunasini sinovdan o'tkazishda kiyim ostidagi qatlamdagi issiqlik yo'qotishlari boshqa paketlarga qaraganda pastroq (2-jadval).

O'tkazilgan dala tadqiqotlari natijalari quyon mo'ynasi + poliefir paketli issiqlikdan himoya qiluvchi kiyimlarni kiyish samaradorligini tasdiqlaydi va qishki

maxsus kiyimlarning issiqlik-fizik ko'rsatkichlarini hisoblash uchun dastlabki ma'lumot bo'ldi. Maxsus kiyimlarning issiqlikdan himoyasini loyihalash metodikasi GOST R 12.4.236-2011 ga muvofiq bajarilgan.

2-jadval

Maxsus kiyimlarning turli paketlarida kiyim ostidagi qatlamning issiqlik qulayligi ko'rsatkichlari

Maxsus kiyimning issiqlik saqlovchi paketi turi	Teplovizorda kiyim osti qatlamining harorati, °C		Sovuq sharoitda kiyim osti qatlamining harorat sensorlaridan olingan ko'rsatkichlar			
	Boshlang'ich	Sinov yakunida	Harorat, °C	Namligi, %	Karbonat anhidrid (CO ₂)kon sentratsiyasi, ppm	Umumiy uchuvchi organik birikmalar TVOC µg/m ³
Sintiponli kurtka	+36,6	+20,80	24,60	31,00	657	236
Tuya junli kurtka	+36,6	+24,70	28,10	29,00	820	236
Quyvon jun-mo'yli kurtka	+36,6	+27,70	32,20	60,00	360	49

Inson tanasi yuzasidan issiqlik yo'qotishlarni hisoblash va turli xil izolyatsiyalangan qatlamlardan iborat maxsus kiyim-kechaklarning issiqlik izolyatsiyasi bajarildi: sintetik tolali (100% poliester), tuya jun (50%) + poliester (50%), quyvon jun (50%) + poliester (50%). Vazifa GOST 12.4.303-2016 "SSBT. Past haroratlardan himoya qilish uchun maxsus kiyim-kechak. Texnik shartlar" bo'yicha hal qilindi. Maxsus kiyim-kechaklarning issiqlik m izolyatsiyasi I_k , M² °C/BT, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_k = (T_k - T_B) / q_n, \quad (3)$$

bu yerda T_k – teri o'rtacha harorati, °C; T_B – atrof-muhit harorati, °C; q_n – issiqlik oqimining o'rtacha tortilgan qiymati, BT/M².

$$q_n = q_m - W - q_{k.dyx} - q_{isp.dyx} - q_{isp.k} \pm \Delta q_{tc} \quad (4)$$

Bu yerda q_m – energiya sarfi, BT/M²; W – mexanik ishning samarali quvvati, BT/M²; $q_{k.dyx}$ – nafas olishda konveksiya orqali issiqlik yo'qotishlari, BT/M²; $q_{isp.dyx}$ – nafas olishda namlikning bug'lanishi orqali issiqlik yo'qotishlari, BT/M²; $q_{isp.k}$ – tana yuzasidan namlikning bug'lanishi orqali issiqlik yo'qotishlari, BT/M²; Δq_{tc} – organizmdagi issiqlik miqdorining o'zgarishi (q_m qiymati va organizmning issiqlik yo'qotishlari yig'indisi o'rtasidagi farq), BT/M².

Qishgi maxsus kiyimlarda o'ta sovuq sharoitlar uchun issiqlik yo'qotishlarini hisoblaymiz.

$$W=130 \text{ BT/M}^2; T_B= -18^\circ\text{C}; T_k= 34^\circ\text{C} \text{ и } q_n=77,1 \text{ BT/M}^2; \Delta q_{tc}= 0:$$

$$q_{\text{н}} = 60 - 5 - 3.6456 - 2.595 - 0.5 + 0 \text{ Вт/м}^2,$$

$$q_{\text{н}} = 55 - 6.7406; \quad q_{\text{н}} = 48.26 \text{ Вт/м}^2,$$

$$I_{\text{к}} = 52^{\circ}\text{C} / 77.1 \text{ Вт/м}^2 \quad I_{\text{к}} = 0.6744 \text{ м}^2 \text{ }^{\circ}\text{C/Вт}.$$

